



“ЎЗБЕКИСТОН – 2030” СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ЗАМОНАВИЙ МАРКЕТИНГ ВА САВДО КОНЦЕПЦИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

**мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман
материаллар тўплами**

2024 йил 15 октябр

II-ТОМ



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
НАМАНГАН МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ



**“ЎЗБЕКИСТОН – 2030” СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА
ОШИРИШДА ЗАМОНАВИЙ МАРКЕТИНГ ВА САВДО
КОНЦЕПЦИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ”**

**мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман
материаллар тўплами**

2024 йил 15 октябр

II-ТОМ

Наманган – 2024

18.	Мансуралиева К.Р.	Вопросы и способы улучшения торговли и услуг в сельской местности и городах, а также применение современных подходов к обслуживанию населения	310
19.	Бахриева Ф. Рустамова М.М.	Развитие торговли и услуг: пути решения проблем в городах и селах	317
20.	Суюнова К.Б. Саидова Ф.С.	Разработка эффективной маркетинговой деятельности для поддержки туристических организаций в нашей стране	320
21.	Shanazarov F.Sh.	Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashning nazariy jihatlari	324
22.	Эсанов О.М.	Ўзбекистонда савдо ҳамда хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришда кўчмас мулк объектларини реклассификациялаш операциялари ҳисоби	328
23.	Po'latov A.X.	Tadbikorlik subyektlarining bozor xizmatlari va uning dinamikasi tahlili	333
24.	Yoqubjonov I.G'.	Qishloq hududlarida agrobiznesni tuzilmalarini rivojlantirish borasidagi xorijiy tajriba va undan kambag'allikni qisqartirishda foydalanish imkoniyatlari	338
25.	Жалилов И.И.	Направления решения проблем развития сферы услуг в сельской местности	343
26.	Сохадалиев А.М.	Пахта-тўқимачилик кластерлари мамалакат кишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши бошқарув тузилмаларидаги янгича ёндашув	346
27.	Mixeeva A.I.	Xizmatlar sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida	353
28.	Zakirova U.M.	O'zbekiston qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri	357
29.	Ибодов К.М.	Ресторан хизматлари соҳаси самарадорлигини оширишда маркетингнинг замонавий усулларида фойдаланиш	361
30.	Musinov D.S.	Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning xususiyatlari va omillari	365
31.	Musinov D.S.	Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning o'ziga xos jihatlari	370
32.	Насруллаев Ф.Ф.	Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида кичик хизмат кўрсатиш корхоналар ишлаб чиқаришининг инновацион ривожлантириш	374

3. Закон Республики Узбекистан «О туризме». - Ташкент, 2019.
4. Концепция стратегии развития Узбекистана до 2035 года. - Ташкент: Великое будущее, 2018. - 233 Б
5. Концепция развития туризма в Республике Узбекистан на 2019-2025 годы / приложение 1 к указу президента Республики Узбекистан от 5 января 2019 года № 5611. - Ташкент, 2019.
6. Новая стратегия развития Узбекистана / Ш.М. Мирзиёев. Учебное пособие. Ташкент, 2022.
7. Суюнова К. Б. Реформы, реализуемые в Узбекистане для повышения эффективности использования сектора туризма // Интернаука. - 2020. - №. 42-2. - S. 85-86.

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Farruh Shadiyorovich Shanazarov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi
haridlar boshqarmasi Bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining iqtisodiy salohiyatining nazariy jihatlariga bag‘ishlangan. Hozirgi zamon iqtisodiyoti kontekstida korxonalarining rivojlanishi va raqobatbardoshligi ushuni iqtisodiy salohiyatning o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy salohiyat, korxonalar, xizmat ko‘rsatish sohasi, raqobatbardoshlik, nazariy jihatlar, inson kapitali, innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot, moliyaviy resurslar, menejment.

Annotation: This article is devoted to the theoretical aspect of the economic potential of enterprises in the service sector. In the context of modern economy, the role and significance of economic potential for the development and competitiveness of enterprises is studied.

Key words: economic potential, enterprises, service sector, competitiveness, theoretical aspect, human capital, innovation, technological progress, financial resources, management.

Annotatsiya: Dannaya statya posvyashena teoreticheskim aspektam ekonomicheskogo potentsiala predpriyatiy v sfere uslug. V kontekste sovremennoy ekonomiki izuchayetsya rol i znachenie ekonomicheskogo potentsiala dlya razvitiya i konkurentosposobnosti predpriyatiy.

Klyuchevye slova: ekonomicheskiy potentsial, predpriyatiya, sfera uslug, konkurentosposobnost, teoreticheskiye aspekty, chelovecheskiy kapital, innovatsii, tekhnologicheskiy progress, finansovye resursy, upravleniye.

Bugungi kunda respublikamizda “xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ishki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish,

ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish” dolzarb masala hisoblanadi.

Iqtisodiy salohiyat tushunshasi va uning nazariy masalalarini yoritishdan maqsad savdo korxonasi iqtisodiy salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini, ularni ifodalovshi ko‘rsatkishlar tizimini, ushbu ko‘rsatkishlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy salohiyat samaradorlikni oshirish yo‘llarini ishlab shiqishdan va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini oshib berishdan iboratdir.

Ushbu masadga erishish ushun bir qancha vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda. Bular quyidagilarda o‘z aksini topganlar.

- savdo korxonalari iqtisodiy salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy mazmnini oshib berish va ularning ta’rifini ishlab shiqish;
- savdo korxonalari iqtisodiy salohiyatini ifodalovshi ko‘rsatkishlar tizimini ishlab shiqish, ularni tasniflash va aniqlanish yo‘llarini ko‘rsatib berish;
- savdo korxonalari iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish orqali ularning samaradorlikni oshirish yo‘llarini ishlab shiqish;
- savdo korxonalari iqtisodiy salohiyatini samaradorligiga ta’sir etuvshi omillarni aniqlash orqali savdo korxonalari aktiviyatini yaxshilash imkoniyatlarini oshib berish.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mazkur masalani yoritishda uning predmeti sifatida savdo korxonalari iqtisodiy salohiyati, uning tarkibi, ulardan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar, samaradorlikni ifodalovshi ko‘rsatkishlar, ularni baholash va tahlil qilish yo‘llari olingan. Uni yetarli darajada yoritish ushun uning ob’ekti sifatida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida faollik ko‘rsatyotgan turli mulk shaklidagi savdo korxonalari hisoblanadi. Savdo korxonasi iqtisodiy salohiyatiga oid ayrim nazariy xulosalarni isbotlash ushun savdo bilan shug‘ullanadigan savdo korxonalari ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Salohiyat tushunshasi keng qamrovli tushunsha bo‘lib, uni hayotimizning barsha sohalariga qo‘llash mumkin. Ushbu so‘zning ma’nosiga aniqlik kiritish ushun uning lug‘aviy ma’nosiga ahamiyatni qaratamiz. Besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da salohiyat so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib “yaroqlilik, vakolat, hukmdorlik, to‘liq hokimiyat” ma’nolarini anglatishi ko‘rsatilgan. Ushbu so‘zni inson qobiliyati nuqtai nazaridan “Qobiliyat, iqtidor”, deb ko‘rsatgan. Agar ushbu so‘zga iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, salohiyat deganda birorta soha, xizmat ko‘rsatish savdo korxonasi, boshqa xo‘jalik yurituvshi sub’ekt yoki insonning biror narsani amalga oshirish borasidagi mavjud imkoniyatlari, qobiliyati va ularda qo‘llaniladigan vositalari majmui tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, barsha harakatdagi narsalarning, insonlar, soha, savdo korxonasi, boshqa xo‘jalik yurituvshi sub’ektlar hatto hayvonlarning ham birorta ishni bajarishda o‘zining imkoniyatlari, salohiyati mavjud ekan. Hozirgi paytda ushbu salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida turli texnika va texnologiyalardan, boshqa ashyoviy ne‘matlardan ham foydalaniladi. Agar iqtisodiyot sohasini oladigan bo‘lsak, iqtisodiyot sub’ektlarining iqtisodiy salohiyatini tushunmoq lozim bo‘ladi.

Iqtisodiy salohiyat umumiy salohiyatning bir yo‘nalishi bo‘lib, bu bevosita iqtisodiyotga oid salohiyatni belgilaydi. Iqtisodiy salohiyat ham juda ko‘p guruhlariga

bo‘linishi mumkin. Masalan, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, hududning (viloyat, tuman, iqtisodiy rayonlar) iqtisodiy salohiyati, xo‘jalik yurituvshi sub’ektlarning iqtisodiy salohiyati kabilar.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy salohiyatning ham turlari va yo‘nalishlari juda ko‘p ekan. Mazkur maqolada barsha iqtisodiy salohiyatlardan biri bo‘lgan xizmat ko‘rsatish korxonalari, ya’ni savdo korxonalarining iqtisodiy salohiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shunki savdo korxonalarining iqtisodiy salohiyati tom ma’noda, to‘liq yaxlit bir iqtisodiy kategoriya sifatida butun iqtisodiyotning harakatga keltiruvshi kushi hisoblanadi. Ammo ushbu tushunsha iqtisodiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan, uning nazariy va metodologik jihatlarini to‘liq oshib berilmagan. Ushbu holat innovatsion iqtisodiyot sharoitida ushbu kategoriyaning nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishni ob’ektiv zaruratga aylantirdi. Shunki, bugungi hayot, shakllangan tadbirkorlik va raqobat muhiti mulkdorga o‘z mulkining bir qismidagina emas, balki hammasidan to‘liq samarali foydalanish lozimligini taqozo qilmoqda. Savdo korxonasi iqtisodiy salohiyati uning iqtisodiy-ijtimoiy aktiviyatini to‘liq ta’minlashga xizmat qiladigan, iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishni ta’minlaydigan mehnat va moddiy resurslardan iborat bo‘ladi. Bunga savdo korxonasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, unga asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslarini kiritish mumkin. Ushbu tushunshalar iqtisodiy adabiyotlarda alohida-alohida juda ko‘p o‘rganilgan. Ammo yaxlit holda iqtisodiy salohiyat sifatida jamlangan tarzda kam o‘rganilgan. Shu tufayli, ushbu ishda iqtisodiy salohiyat tushunshasining nazariy jihatlarini bilan birga, undan samarali foydalanish yo‘llariga, ularni baholash va tahlil qilish usullariga to‘liq to‘xtalishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, diversifikatsiyalash, jamiyatni modernizatsiyalash, iqtisodiyotga innovatsiyalarni izshillik bilan joriy qilish, bozor munosabatlarini bosqishma-bosqish shuqurlashtirib borish, islohotlarni yanada takomillashtirish jarayonida o‘tayotgan har bir kun jamiyatimizning mazmun jihatidan yangilanayotganligidan dalolat berib kelmoqda. Iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida yangi iqtisodiy kategoriyalar, tushunshalar hayotimizga shu darajada tezlik bilan kirib kelmoqdaki, ularni idrok qilish, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, metodologik muammolarini hal qilishga ulgurish qiyin bo‘lmoqda. Bunday yangi iqtisodiy tushunshalardan biri savdo korxonasining iqtisodiy salohiyati tushunshasidir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda boshqa hamdo‘stlik mamlakatlarida shop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda savdo korxonasining tasarrufidagi aktivlari, mehnat va moliyaviy resurslarini o‘rganish bilan sheklanib qolinmoqda.

Bu bizning fikrimizsha, savdo korxonasining iqtisodiy aktiviyatini to‘liq o‘rganish ushuni nazariy va metodologik jihatdan yetarli emas. Shunki, savdo korxonasining iqtisodiy aktiviyati bevosita unda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq.

Ma’lumki, iqtisodiy jarayonlarning sodir bo‘lishida faqat savdo korxonasining aktivlari emas, balki boshqa elementlari ham ishtirok etadi. Masalan, ishlab-shiqarish jarayonini olaylik. Uning sodir bo‘lishi ushuni, albatta, moddiy-texnik ta’minoti, ya’ni uskunalar, jihozlar, bino, xomashyo kabilar zarur. Ammo har qanday ilg‘or texnika,

yuqori sifatli xomashyo o‘z-o‘zidan iqtisodiy jarayonni sodir qilib, moddiy ne‘mat ishlab shiqarmaydi. Unga, albatta, odamning aralashuvi, ya’ni jonli mehnatning mushtarakligi va ishtiroki zarur. Agar jonli mehnat ishtirok etmasa har qanday ilg‘or texnika ham «o‘lik», harakatsiz uskuna bo‘lib qolaveradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonlarni sodir etish ushun moddiy boyliklar bilan birgalikda jonli mehnatning ham ishtirokini ta‘minlash lozim bo‘ladi. Shundagina ishlab shiqarish jarayoni sodir bo‘lib yangi mahsulot yaratilishiga erishish mumkin. Shu mahsulotning sotilishi esa savdo korxonasining barsha harajatlarini qoplab foyda olishini ta‘minlaydi. Shundagina ishlab shiqarishning provard maqsadi – aholining farovonligi amalga oshadi, savdo korxonalarining ahvoli kundan-kunga yaxshilanib boradi.

Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, savdo korxonasining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilganda savdo korxonasi tasarrufidagi uning faqatgina aktivlari bilan shegaralanib qolish, uning iqtisodiy aktiviyati to‘g‘risida to‘liq xulosa qilish ushun yetarli bo‘lmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, savdo korxonasining iqtisodiy ahvoriga to‘liq va batafsil baho berish ushun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo‘shgan holda tizimli yondashib kompleks o‘rganishni taqozo qiladi.

Shunday qilib, savdo korxonasining iqtisodiy salohiyati deganda unda sodir bo‘ladigan moliyaviy-xo‘jalik aktiviyatini (iqtisodiy jarayonni) to‘liq ta‘minlashda bevosita ishtirok etadigan barsha moddiy va mehnat resurslari (boyliklari) hamda nomoddiy aktivlar majmui tushuniladi.

Iqtisodiyot fani aniq va amaliy fan bo‘lganligi tufayli undagi qo‘llanadigan barsha tushunshalar va ko‘rsatkishlarning nomi, mazmuni va qiymati mavhum bo‘lmasdan aniq, hisoblanadigan, ma’lum bir sohani o‘zida ifoda etadigan bo‘lishi lozim. Ushbu nazariy mulohaza bevosita savdo korxonasining iqtisodiy salohiyatiga ham tegishli. Shu tufayli uni baholashning ba’zi nazariy va metodologik jihatlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Zero, savdo korxonasining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, unda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash ushun muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Abdurahmonov, I.** (2020). *Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy salohiyatni baholashning nazariy asoslari*. Tashkent: Iqtisodiyot va badiiy adabiyot.
2. **Saidov, A.** (2019). *Innovatsion iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
3. **Khalilov, Sh.** (2021). *Xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish*. Tashkent: Iqtisodiyot va menedjment.
4. **Davronov, E.** (2022). *Iqtisodiy salohiyat va inson kapitali: nazariy va amaliy jihatlar*. Tashkent: Ijtimoiy fanlar.
5. **Yusupov, F.** (2023). *Texnologik taraqqiyot va xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalar*. Tashkent: Innovatsion rivojlanish.
6. **Tursunov, M.** (2022). *Moliya va xizmat ko‘rsatish: nazariy va amaliy tahlil*. Tashkent: Moliya va kredit.

7. **Mustafayev, R.** (2020). *Iqtisodiy o'sish va xizmat ko'rsatish korxonalarining roli*. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.

8. **Askarov, B.** (2021). *Nazariy jihatlar: xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy salohiyat*. Tashkent: O'zbekiston davlat iqtisodiy universiteti.

ЎЗБЕКИСТОНДА САВДО ҲАМДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КЎЧМАС МУЛК ОБЪЕКТЛАРИНИ РЕКЛАССИФИКАЦИЯЛАШ ОПЕРАЦИЯЛАРИ ҲИСОБИ

Эсанов Ойбек Мадатович
СамИСИ таянч доктаанти

Аннотация: Республикамизда савдо ҳамда хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришдаги муҳим объектлардан бири, корхоналар балансидаги кўчмас мулкларнинг реклассификацияси, бухгалтерия ҳисобида тутган ўрни ва уларнинг асосий вазифалари ёритилган.

Калит сўзлар: Кўчмас мулк, инвестициявий кўчмас мулк, бино, ер участкаси, иншоот, ҳисоб, назорат, таҳлил, кўчмас мулк ҳисоби, бухгалтерия вазифалари.

Абстрактный: Выделены один из важных объектов развития сферы торговли и услуг в нашей республике - переклассификация недвижимости на балансах предприятий, их роль в бухгалтерском учете и их основные задачи.

Ключевые слова: Недвижимость, инвестиционная недвижимость, строительство, земля, строительство, бухгалтерский учет, контроль, анализ, учет недвижимости, бухгалтерские обязанности.

Abstract: One of the important objects in the development of the trade and service sectors in our republic, the reclassification of real estate in the balance sheets of enterprises, their role in accounting and their main tasks are highlighted.

Keywords: Real estate, investment real estate, building, land plot, structure, accounting, control, analysis, real estate accounting, accounting tasks.

Халқаро стандартларга мувофиқ кўчмас мулклар алоҳида ажратилган бўлиб, улар ўртасида реклассификациялаш операциялари ҳамда улар натижаларини ҳисоб ва ҳисоботда акс эттиришда бир нечта МҲХСлардан фойдаланилади, жумладан, МҲХС (IAS) 16 – “Асосий воситалар”, МҲХС (IAS) 2 – “Товар-моддий захиралар”, МҲХС (IAS) 40 – “Инвестициявий кўчмас мулк” ва бошқа стандартлардан фойдаланилади. Кўчмас мулкнинг бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларидан фойдаланган ҳолда ташкил этиш молиявий ҳисобни халқаро амалиётга яқинлаштиради.

Хорижий адабиётларда кўчмас мулк атамаси фанда кенг қўлланилиб, уни бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти сифатида қаралади. Шунинг учун, мамлакатимизда замонавий ёндашувларга асосланиб кўчмас